Tolipova Noilaxon Nodir qizi

Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish 1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov

Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari 1186
Xaqberdiyeva Sh. T.

Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar 1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich

Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida) 1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna

Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojantirish 1201
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi

Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari 1204
Astanakulova Manzura Buribayevna

Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi 1209
Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna

Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari 1212
Islomov Eldor Yusupovich

Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish 1215
Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi

Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык 1220
Марупова Дилфуза Давроновна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish 1226
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi

Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediylar 1231
Kandaxarov Anvarjon Xasanovich

Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish 1236
Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi

Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий 1239
Имомов Сирожиддин Илхомович

Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках 1244
Оринов Облақул Жумаевич

Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития 1248
Ачилов Ойбек Хакимович

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari 1252
Berdiyorov Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyoxon Zokirjon qizi

Sun'iy intellekt asosida talabalarning dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish 1257
Saidov Usmon Bahron o'g'li

Современные методы устранения заикания у подростков 1260
Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи

O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari 1264
Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna

Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari 1268
Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich

Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri 1274
Abduhakimova Muslima Bahodir qizi

Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish 1277
Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish 1282
Artikova Nargiz Shuxratovna

Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari 1286
Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari 1289
Begmatova Nasiba Safarbayevna

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korreksiyalashning pedagogik texnologiyasi 1293
Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna

Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'rni 1296
Burxonova Guyoxon Gulomovna

Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish 1300
Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari 1304
Jo'raqulova Gulruh Murot qizi

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari 1307
Karimov Ravshanbek Rizomatovich

Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts 1312
Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi

Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va uning rivojlanish omiillari 1315
Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi

Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati 1319
Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi

Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari 1323
Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi

Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English 1326
Menglibekov Reypnazar Mukhammetkarim-uli

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari 1329
Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna

Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism 1334
Nomanova Ma'rifat Abdillayevna

Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari 1337
Olimova Fotima Botirovna

Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida) 1341
Omonqulova Dildora Xusniddin qizi

Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish 1348
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna

O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish 1351
Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li

Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida) 1355
Salomov Ilhom Salimovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish 1359
Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna

"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida 1362
Sobirova Mashxura Ubaydullayevna

Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi 1365
Sodiqova Nigora Turayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi 1368
Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi

Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila–kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari 1371
Teshayev Sobit Sodik o'g'li

Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi 1374
Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi

Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi 1377
Xakimov Saydullo Tulanboyevich

Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari 1380
D. A. Xodjimatova

Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati 1385
Zafar Xudaykulov

Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish 1388
Yusupova Munisa

Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 1391
Zokirova Nargiza Akbarjonovna

Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida 1395
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi

Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов 1398
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна

Emotsional intelektni rivojlantirishning nazariy asoslari 1403
Yarmatov Raxmboy Baxramovich

Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish 1409
Bolibekov Alisher Abdusalomovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari 1412
Djumayeva Dildora Isroilovna

Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari..... 1416
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna

Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi 1421
Maxammatova Feruza Olimovna

O'zbekistonda virtual muzeylar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari..... 1424
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Yusupova Mohinur Ulug'bekovna

Xalqaro ta'lim tajribasi asosida o'quvchilarda tafakkur erkinligini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari 1434
Maxammatova Ma'muraxon Jalilovna

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarda pedagogik taksonomiya ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi..... 1438
Turdiyeva Shoxidaxon Anvardjanovna

Tibbiyot texnikumi talabalari klinik tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari: konseptual yondashuvlar va ilmiy talqinlar 1443
Axmedov Marifxan Mamatxanovich

Valeologik tamoyillarning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati..... 1448
Begmatova M. T.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish..... 1452
Umbarova Nasiba Xolboy qizi

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolik kompetensiyasi dolzarb pedagogik muammo sifatida..... 1456
Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich

Oilada ota-ona va bola munosabatlaridagi pedagogik-psixologik omillar..... 1460
Exsonova Feruza Turdixo'jayevna

Педагогико-психологические аспекты формирования социокультурной компетентности будущих учителей средствами музейной педагогики 1464
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi

Serebral falaj(bsf)tashxisli bolalarda respirator-nutq mexanizmlarining buzilishi va korreksion yondashuvlar..... 1469
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi

Milliy harakatli o'yinlar talaba yoshlar tarbiyasida rivojlanishining zamonaviy roli va ahamiyati 1473
Mirzayev Dilshod Khamidovich

O'smir qizlarda deviant xulqni profilaktika qilish 1477
Mo'minova Dilrabo Murodillayevna

Arab tilshunosligida ma'no, tuzilma va bayon nazariyasining shakllanishi Sakkokiy qarashlari asosida tahlil..... 1481
Abdullayev Olimjon

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar kadrlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari..... 1487
Yuldasheva Munisa Ibrohimovna

Xorijiy tillarni o'qitishda ijtimoiy-madaniy kompetensiya 1492
Yormatova Gulnoz Qayumovna

Developing Imagination and Narrative Thinking in Young Learners Through English Storytelling Activities..... 1497
Madjitova Oyshakhon Mukhammadganiyevna, Anvarova Muslima

Effectiveness of Online Resources in Teaching Professional Vocabulary to Philology Students 1508
Yusupova Zarrina

Modern Automotive Lexicon: Formation Processes, Semantic Fields, and Functional Usage 1511
Yuldasheva Mastona Muxubillayevna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishda "Atrof va men" metodikasidan foydalanish 1514
Uralova Nurxon Maxadovna

Chet tili bo'yicha A1, A2, B1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar (lingvistik kompetensiya) tahlili 1519
Tojiyeva Anora Baxtiyorovna

Гендерных различия прокрастинации 1526
Рахмонова Гузал Жамшидовна

A System of Software that Develops the Intellectual Potential of Students in Teaching Mathematics 1529
Toxirova Malika Muzaffar qizi

O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida 1535
Maxkamova Muborak Yusupovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish 1543
Raximova Zilola Alimbayevna

Ona tili darsliklari ta'limi mazmunini lingvistik ekspertiza qilish metodikasi 1547
Majidova Aziza

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari 1551
Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna

Oliy texnika ta'limida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini o'qitishning innovatsion metodik asoslari 1554
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li

STEAM tamoyillari asosida rivojlantiruvchi muhit yaratish 1558
Umarova Muqaddasxon

Autistik spektr buzilishi: DSM-5 va ICD-11 tasniflari, tadqiqotlar va jamiyatdagi ahamiyati 1562
Tuxtayeva Maxfirat

STEAM texnologiyasi asosida xorijiy til (ingliz tili) o'rgatish 1566
Teshaboyeva Zumradxon

Cultivating Social-Emotional Learning (SEL) in Classrooms 1569
Choriyev Ilxom Kenjayevich

Kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari 1573
Mamatkabilov A. X.

Sun'iy intellekt – speechace dasturi yordamida o'quvchilarning ingliz tilida talaffuz malakasini oshirish 1578
Nabiyeva Shahnoza Alijon qizi

Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 1583
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi

STEAM ta'limining O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari 1588
Abdukarimova E'zoza Fazliddin qizi, Bayjigitova Dilorom Baxtiyarovna

Oliy ta'lim tizimida jarayonlarning boshqarishning innavatsion texnologiyalari 1592
Uzaqov Nomozali Hamdamovich

Kimyoni o'qitish jarayonida virtual laborotoriyadan foydalanish 1596
Murodova Sitorabonu Bahodir qizi

Raqamli platformalardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarning media ko'nikmalarini shakllantirish 1599
Safarov Feruz Saminjon o'g'li

Qoraqalpoq xalq an'analari vositasida maktab o'quvchilarini an'anaviy tarbiyalash (Bo'zatov tumani maktablari misolida) 1603
Dosjonova Nilufar Rustam qizi

Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education 1607
Abira Bakhramova

Kichik maktab yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxslararo munosabatini korreksiyalashda ertak terapiyasidan foydalanish 1613
Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi

Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida bir qator tarkibiy komponentlarning uyg'un rivoji 1617
Mirzaxo'jayeva Dilrabo To'lqin qizi

O'quv mashg'ulot guruhida musoboqa oldi mashg'ulotlar tuzilishi (badminton misolida) 1621
Ismoilova Fotima Ismoil qizi

Alohida ajratilgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish davomida ularning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirish zaruriy omil ekanligi to'g'risida 1626
Qozoqboyeva Xanifaxon Shavkatjon qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Methodological Foundations for Shaping the Creative Activity of Younger Pupils in Solving Mathematical Problems 1630
Dzhurakulova Adolat Khalmuratovna

Jadidlar merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashini faollashtirish metodini takomillashtirish 1638
Bekchanova Ozoda Otajon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv motivatsiyasini rivojlantirish 1641
Alibayeva Dildora Raxmatilla qizi

Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish 1644
Bolibekov Alisher Abdusalomovich

Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari 1647
Djumayeva Dildora Isroilovna

Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari 1650
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna

Emotional Burnout of Teachers as a Factor Influencing Professional Activities 1655
Kamilova Nadira Gayratovna, Abdullaeva Nelufar Karimjanovna

Методика развития профессионально-речевых компетенций будущих специалистов 1663
Комилова Мукаррам Кобилжоновна

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari va samarali metodlari 1666
Koziyeva Fazilat

Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi 1671
Maxammatova Feruza Olimovna

Deviant xulq-atvor shakllanishining nazariy va eksperimental tadqiqotlar tahlili 1674
Xolmurotova Shoxista Mirzaliyevna

IJF yangi qoidalarining dzyudochilar texnik arsenaliga ta'siri: 2020 va 2024-yilgi olimpiadalar qiyosiy tahlili 1677
A. T. Saydullayev

Системный подход к внедрению мультилингвальных методов: разработка структурно-функциональной модели в педагогическом вузе 1681
Жумамуратова Юлдуз Бахтияровна

Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasini o'qitishning metodik asoslari 1684
Nigora Botirova

Musiqa asosida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantrish metodlari 1688
Toshkuziyeva Dilrabo Yusupjanovna

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida fortepiano ijro texnikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari 1692
Normurodova Lobar Mamasoliyevna

XXI asr raqamli texnologiyalari sharoitida boshlang'ich sinflarda STEM/STEAM texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari 1697
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy o'zlikni anglashda motivatsiya va professional kompetensiyalarning shakillanish omillari 1702
To'raxonova Mohinur Abdunazar qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning psixologik-pedagogik asoslari ... 1705
Shomurodova Nozima Baxriddin qizi

Liderlik sifatlari va ularni pedagogik faoliyatda rivojlantirishga doir konseptual yondashuvlar 1708
Mansurova Maftuna Komiljon qizi

Актуальные проблемы олимпийского образования студенческой молодёжи 1712
Мамазиятов Дониербек Бахтиярович

Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini shakllantirishda zamonaviy raqamli vositalarning o'rni 1716
Dadonova Aziza Tulkunovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga o'zbek va ingliz tillarini integrativ aloqadorlikda o'rgatish tamoyillari 1720
Mirkasimova Zilola Alisherovna

Bolaning axloqiy intellektini shakllantirishda otaning roli 1724
Qayimova Maftuna Tursunovna

"Ota-ona va oila" konseptining o'zbek paremiologik tizimidagi ifodalanishi (semantik-pragmatik tahlil) 1729
Abdimurodov Doston Dilmurod o'g'li

Методика организации международного сотрудничества на основе кластерного подхода в высших образовательных учреждениях 1735
Тиллаев Алишер Хасанович

Masofaviy ta'lim platformalarida o'zlashtirish monitoringi uchun Learning Analytics metodlaridan foydalanish imkoniyatlari 1740
Abdulatipov Muhammadtemur

Kayzen texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilar boshqaruv madaniyatini rivojlantirish 1746
Eshonkulova Shaxnoza Boyto'rayevna

Bo'lajak pedagoglarning uzluksiz amaliyot jarayonida professional mahoratini oshirish usullari va texnologiyalari 1751
Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi

Er-xotinlar o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar 1754
Jalilova S. X.

Innovatsion texnologik yondashuvlar asosida boshlang'ich sinflarda savodxonlik faoliyatini takomillashtirish 1758
Karimjonova Dilnoza Alijanovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida art-pedagogik mashg'ulotlar yordamida bolalarning kreativ tafakkurini shakllantirishning samarali yo'llari 1761
Qayumova Maftuna Qahhor qizi

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda uchraydigan muammolar va ularni hal etish 1765
Zokirova Sohiba Muxtaraliyevna, Mamadaliyav Anziratxon Mirzaumar qizi

Формирование этикетного поведения у детей старшей подготовительной группы 1768
Назруллаева Хумора Муродилла кизи

Дистанционное обучение как развивающая и дополняющая форма образования познавательных способности учащихся 6-7 классов (на примере изучения истории Узбекистана) 1772
Sultonova Maxfirat Akramovna

IIV akademik litseyi o'spirin o'quvchilarida kasbiy motivatsiyaning o'ziga xos jihatlari 1775
Jo'rayev Sodiqjon Muxammadinovich

Ota-ona va bola o'rtasidagi emotsional muloqot 1779
Eshemov Abdurahim Ravshan o'g'li

Ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirishda kimyoning o'rni 1781
Ahadov Ma'murjon Sharipovich, Djo'rayeva Dildora Ziyadulloyevna

Organization of Students' Independent Learning: Theoretical Foundations and Key Factors 1787
Mamatkulova Kimyokhon Abdujalilovna, Akramova Nilufar Ahmadjonovna

Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi 1790
Omonova Gulandam Davlatovna, Mamedova Maxfuza Erkinovna

Oliy va professional ta'limda laboratoriya ishlarini sun'iy intellekt yordamida soddalashtirish 1794
Sharopov Farrux Furqat o'g'li

Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida 1798
Yaxshimuratova Sevara Rustam qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiya va media savodxonlikni rivojlantirishning asoslari 1803
Yuldasheva Munisa Rashidovna

Kimyo darslarini loyihaviy ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish metodikasi 1807
Ahadov Ma'murjon Sharipovich, Karimova Durdona Dilshod qizi

O'zbek tilini o'qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning innovatsion metodik asoslari 1812
Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA FORTEPIANO IJRO TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Normurodova Lobar Mamasoliyevna
Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta'limotlat tarixi yo'nalishi tayanch doktoranti

Ilmiy rahbar: Yuldoshev Umid Yuldoshovich
PhD, dotsent

ORCID: 0009-0002-6217-5116

Annotatsiya: Mazkur maqolada fortepiano ijrochiligida texnik mahoratni rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Texnik mahoratni takomillashtirish jarayonida ijrochining tempi, ritmik aniqligi, dinamik ifoda vositalari hamda tovush sifati muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, E. Liberman va G. G. Neygauz kabi mashhur musiqiy pedagoglarning metodik qarashlari tahlil qilinib, ularning ijro texnikasini shakllantirishdagi amaliy ahamiyati ochib beriladi. Maqolada to'g'ri postanovka, ongli mashq, nuqtali usullar va boshqa metodik yondashuvlarning samaradorligi yoritilib, o'quvchi va talabalarda ijro texnikasini samarali rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: fortepiano, ijro texnikasi, musiqiy pedagogika, postanovka, ongli mashq, texnik mahorat.

Abstract: This article examines the pedagogical foundations of developing technical mastery in piano performance. It scientifically substantiates the significance of tempo, rhythmic accuracy, dynamic means of expression, and sound quality in the process of improving performance technique. The methodological views of renowned pedagogues such as E. Liberman and G. G. Neuhaus are analyzed, highlighting their practical contribution to the formation of piano performance technique. The article also emphasizes the effectiveness of correct posture, conscious practice, point-based methods, and other pedagogical approaches, offering practical recommendations for students to enhance their technical skills in piano performance.

Key words: piano, performance technique, music pedagogy, posture, conscious practice, technical mastery.

Аннотация: В статье раскрываются педагогические основы развития технического мастерства в фортепианном исполнительстве. Научно обосновывается значимость темпа, ритмической точности, средств динамического выражения и качества звука в процессе совершенствования исполнительской техники. Анализируются методические взгляды известных педагогов – Э. Либермана и Г. Г. Нейгауза, а также показана их практическая значимость в формировании фортепианной исполнительской техники. Особое внимание уделяется правильной постановке, осознанной практике, точечным методам и другим педагогическим подходам, приводятся рекомендации по эффективному развитию технических навыков у студентов.

Ключевые слова: фортепиано, исполнительская техника, музыкальная педагогика, постановка, осознанная практика, техническое мастерство.

KIRISH

Musiqa o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarni ma'naviy tarbiyalovchi, ularning badiiy dunyoqarashini shakllantiruvchi yetakchi shaxs bo'lishi lozim. Shu bois bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda fortepiano ijro texnikasini rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Fortepiano – musiqiy ta'limning asosi bo'lib, ijrochi va pedagog uchun eng muhim vosita sanaladi. Zero, bu cholg'u nafaqat yakka holda, balki vokal va ansambl mashg'ulotlarida ham keng qo'llaniladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'z faoliyatida bir qator vazifalarni bajarishi muhim hisoblanadi:

- ko'rgazmalilik tamoyili asosida o'quvchilarga musiqa asarlarini fortepianoda ijro etib ko'rsatadi;

- dars jarayonida musiqiy savodxonlikni mustahkamlashda fortepianodan foydalanadi;
- ansambl va xor mashg'ulotlarini boshqarishda, kuylashga hamrohlik qilish jarayonida ushbu cholg'udan keng foydalanadi.

Shu sababdan fortepiano ijro texnikasini egallash darajasi o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi muhim mezonlardan biridir. Musiqiy ijrochilik san'atida texnik mahorat muhim o'rin tutadi. Xususan, fortepiano ijrochiligida asarni mukammal ijro etish uchun nafaqat ijodiy talqin, balki texnik jihatdan puxta tayyorgarlik ham zarur. Shu bois musiqiy pedagogika sohasida ijro texnikasini rivojlantirish masalasi doimo dolzarb bo'lib kelmoqda.

Ma'lumki, texnik mukammallikka qisqa muddatda erishib bo'lmaydi. Bu jarayon muntazam mashq, qat'iyat, sabr-toqat va pedagogik yondashuvlarni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnik mahorat deganda ijrochining tempi, ritmik aniqligi, dinamik ifoda vositalari va tovush xususiyatlarini mukammal tarzda boshqara olish qobiliyati tushuniladi. Ushbu elementlar uyg'un bo'lgan taqdirdagina asarning badiiy mazmuni to'liq ifodalanadi. Pedagogik tajribada shuni kuzatish mumkinki, ijro texnikasi zaif bo'lgan ijrochi asarni badiiy jihatdan to'laqonli talqin eta olmaydi. Albatta, ijro texnikasini oshirish birdaniga amalga oshmaydi. Buning uchun muayyan vaqt va mehnat talab etiladi.

Shuning uchun ham musiqa pedagogikasida asar ijrochining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu yondashuv tavsiya etiladi. Ana shundagina asarni hech bo'lmaganda mukammallikka yaqin darajada ijro etish imkoniyati yuzaga keladi. Demak, texnik mahoratni namoyon etishda (asar ijrosida) birinchi navbatda to'g'ri asar tanlash nihoyatda muhimdir. Bunda pedagogik jihatdan ijrochining imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish lozim.

Fortepiano ijrochiligi texnikasini rivojlantirish murakkab va uzluksiz jarayondir. Bu jarayon ijrochidan mehnat, sabr, intizomni, pedagogdan esa metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlashni talab etadi. Texnik mahoratning rivojlanishi nafaqat texnik elementlarning mukammallashuviga, balki asarning badiiy mazmunini chuqur ifoda etish imkoniyatining kengayishiga ham xizmat qiladi. Shu bois musiqiy pedagogika sohasida fortepiano texnikasini takomillashtirish masalasi doimiy ilmiy izlanish va amaliy tajriba talab etuvchi yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Fortepiano ijrochiligida texnik mahoratni rivojlantirish masalasida E. Liberman va G. G. Neygauzning ilmiy-adabiy merosi alohida ahamiyatga ega [1]. Liberman texnikani rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasi sifatida postanovka va qo'l holatini ko'rsatadi. Neygauz esa ijro jarayonida tovush ifodaviyligini texnik mukammallik bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining fortepiano ijrochiligi texnikasini shakllantirish jarayoni psixomotor, musiqiy va pedagogik komponentlarning uyg'unligini talab qiladi. Fortepiano texnikasi murakkab psixomotor faoliyat bo'lib, bunda miya, mushaklar, eshituv idroki va barmoqlar harakati uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritadi. Shu sababli mashqlarni ongli ravishda bajarish, ya'ni diqqatni barmoq harakatiga, tovush sifatiga va nota matniga qaratib ishlash texnik o'sishning zaruriy sharti hisoblanadi. Noto'g'ri yoki mexanik mashq qilish esa samaradorlikni sezilarli darajada kamaytiradi. Liberman fortepiano texnikasida ortiqcha mushak zo'riqishlari ijrochilik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlaydi [1].

TADQIQOT METADALOGIYASI

Texnik rivojlanishning muhim sharti sifatida mushaklarning erkinligi, harakatlarning aniqligi hamda energiya sarfining minimal bo'lishi ko'rsatiladi. Ushbu tamoyil ijrochining uzoq muddatli mashqlar jarayonida charchamasdan ishlashiga imkon yaratadi. Liberman barmoq texnikasini alohida izolyatsiyada emas, balki qo'l panjasi, bilak, tirsak va yelka harakatlari bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, barmoqlar mustaqilligi faqat mushak kuchi bilan emas, balki harakatlarni markazdan boshqarish va muvofiqlashtirish (koordinatsiya) orqali shakllanadi.

Liberman metodikasida sekin tempda mashq qilish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Sekin mashq qilish harakat mexanizmini anglash, eshituv nazoratini kuchaytirish hamda xatolarni ongli ravishda tuzatish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Tezlik esa faqat harakatlar avtomatlashtirilgandan so'ng oshirilishi lozim. Liberman nazariyasida texnika maqsad emas, balki vosita sifatida talqin qilinadi. Fortepiano texnikasining yakuniy vazifasi musiqiy obrazni to'liq ochib berish, ijrochining individual talqinini ifodalash hamda badiiy g'oyani tinglovchiga yetkazishdan iborat [2].

G. G. Neygauz texnikani rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillarni belgilaydi:

1. **Texnika va mazmun birligi.** Texnik mashqlar musiqiy ma'no va ifoda bilan uzviy bog'liq holda o'zlashtirilishi zarur; mexanik mashq qilish ijrochilik sifatini pasaytiradi.

2. **Eshituv nazoratining ustuvorligi.** Har bir texnik harakat ichki va tashqi eshituv orqali nazorat qilinishi, tovush sifati texnikaning asosiy mezoni bo'lishi lozim.

3. **Erkinlik va tabiiylik.** Neygauz ortiqcha mushak zo'riqishini texnik rivojga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida baholab, harakatlarning erkin bo'lishini muhim deb hisoblaydi.

Neygauz metodikasi fortepiano texnikasini badiiy tafakkur, eshituv madaniyati va harakat erkinligi bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv ijrochining faqat texnik imkoniyatlarini emas, balki uning badiiy yetukligini shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Texnik tayyorgarlikni rivojlantirish uzoq muddatli va izchil jarayon bo'lib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Asosiy tayyorgarlik bosqichi – to'g'ri postanovka

Qo'l, barmoq, gavda va oyoqlarning anatomik jihatdan qulay joylashuvi texnik o'sishning poydevorini tashkil etadi [1]. Noto'g'ri postanovka ritmik notekislikka, tovush sifati buzilishiga va mushaklarning tez charchashiga olib keladi. To'g'ri postanovka ijrochi musiqa asbobi bilan endigina tanisha boshlagan, ya'ni boshlang'ich musiqiy ta'limni olayotgan davrda o'rganiladigan jarayondir.

Ammo ayrim hollarda fortepiano cholg'usida ijro etish malakalariga ega bo'lgan talabalarda ham postanovkaning noto'g'ri shakllanganini kuzatish mumkin. Albatta, bu holat tuzatilmasdan turib, ijro texnikasini yaxshilash haqida o'ylash mumkin emas. Chunki noto'g'ri postanovka qancha vaqt mashq qilinmasin, yaxshi natijaga erishishga to'sqinlik qiladi.

Ma'lum darajadagi ijro malakasiga ega bo'lgan ijrochining postanovkasini to'g'rilash biroz qiyin bo'lishi mumkin. Chunki u yillar davomida shu holatda fortepiano chalishga o'rganib qolgan bo'ladi. Biroq o'z ustidan, ya'ni qo'llar, gavda va oyoqlarning to'g'ri holati ustidan qat'iy nazorat olib borish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda qo'llarning erkin holatda bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Qo'llarni qattiq tutib, yelkalarni siqib chalish texnikaning rivojlanmasligiga sabab bo'ladi.

Gavda va qo'llarning klavish ustida erkin harakatlanishiga yordam beruvchi bir qator mashqlar mavjud. Ushbu mashqlarni har kuni 15–20 daqiqa bajarish tana va qo'llarning klavish ustida erkin, zo'riqishsiz harakatlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday mashqlarni ijrodan keyin qo'llarda kuchli charchoq sezilganda ham bajarish maqsadga muvofiq.

Texnik malaka bosqichi

Bu bosqichda etyudlar va murakkab mashqlar orqali barmoqlarning klavish ustida erkin harakati, tezkorligi va qo'lning moslashuvchanligi rivojlantiriladi. Barcha pianistlarga ma'lum bo'lganidek, gamma ustida ishlash texnikaning sezilarli darajada o'sishiga sabab bo'ladi.

Gammani turli ko'rinishlarda, ya'ni tabiiy, garmonik, melodik, tersiya, detsima, seksta, akkordlar va arpedjio shakllarida, shuningdek xromatik gammalarni turli usullarda, ikki qo'lning qarama-qarshi yo'nalishida ijro etish lozim. Ijrochining qobiliyatiga qarab gamma ko'rinishlarini bosqichma-bosqich o'rganish maqsadga muvofiq.

Masalan, ilgari tersiya yoki detsima ijro etmagan talaba dastlab bu ko'rinishlarni faqat to'g'ri harakatda ijro etishi tavsiya etiladi. Muayyan vaqt davomida ushbu usullar o'zlashtirilgach, qo'llarning qarama-qarshi harakatlarini qo'llash mumkin.

Gammalarni ravon, tez va sifatli tovushlarda ijro etish uchun mashq jarayonida sekin tempda va turli usullarda ishlash talab etiladi. Demak, birinchi vazifa – sekin, shoshilmasdan, noto'g'ri tovushlarsiz ijro etishdir. Shundan so'ng turli usullarni qo'llash mumkin. "Nuqtali usullar"ni qo'llash shular jumlasidan bo'lib, ular barmoq mustahkamligini ta'minlaydi. Biroq bir usulni uzluksiz mashq qilish aks ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Masalan, bir qo'lni legato, ikkinchi qo'lni esa stakkato va teskari usulda mashq qilish ijobiy natija beradi. Keyingi usullardan biri tez–sekin va sekin–tez usulidir. Masalan, to'rt tovush sekin, to'rt tovush tez va aksincha. Shuningdek, tovushlarni uch, besh va boshqa variantlarda guruhlash ham qo'llaniladi. Navbatdagi usul – bir klavishni ikki marta bosish ("ikkitalik usul") bo'lib, bunda birinchi tovush qisqa va kuchsiz, ikkinchi tovush esa kuchli va cho'zilgan bo'ladi. Ushbu usul barmoqlarning klavishga yaxshiroq moslashishiga va kuchsiz barmoqlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Bunday mashqlarni to'g'ri va o'rinli qo'llay bilish eng muhim vazifalardan biridir. Chunki noto'g'ri qo'llangan mashqlar ijobiy natija bermasligi, aksincha ijro sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ongli mashq bosqichi

Mashqlarni mexanik emas, balki ongli tarzda bajarish zarur. Miya va barmoqlar harakati o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgani sababli mashq jarayonida diqqatni to‘liq ijroga qaratish samaradorlikni oshiradi. Agar ijrochi mashq davomida barmoqlari bilan klavishda harakat qilib, fikran boshqa narsalarni o‘ylasa, bajarilayotgan mashqlarning samaradorligi sezilarli darajada kamayadi. Bu holat mashqni sport mashg‘ulotiga o‘xshash mexanik faoliyatga aylantirib qo‘yadi.

Masalan, nuqtali usulni aralash holda ijro etishda (to‘rt va olti tovushlarga uzun to‘xtashlarda) ongli ravishda diqqatni barmoq harakati, tovush sifati va nota matniga qaratmaslik chalkashliklarga olib keladi. Shu sababli mashqlarning foydali va samarali bo‘lishi uchun ularni ongli tarzda bajarish muhim hisoblanadi.

Ijodiy qo‘llash bosqichi

Ushbu bosqichda o‘rganilgan texnik usullar badiiy asarlar ijrosida qo‘llaniladi. Bu jarayonda ifodaviylik, dinamika, temp va artikulyatsiya kabi ijro elementlari chuqurlashtiriladi. Mazkur bosqichda talabaning o‘z ijrosini tinglashi va harakatlarini kuzatishi samarali natija beradi.

Ijroni video yozuvga muhrlab, keyinchalik uni tahlil qilish o‘z xato va kamchiliklarini anglashga yordam beradi. Masalan, ijro davomida piano qismini yetarli darajada ijro etyapman deb o‘ylagan ijrochi, yozuvni eshitgach, tovush yetarlicha yumshoq emasligini sezishi va uni bartaraf etishga harakat qilishi mumkin. Ritm bilan bog‘liq muammolar ham ushbu usul orqali aniqlanadi.

Motivatsiya va intizom

Ijrochining ichki xohishi va mehnatsevarligi ustoz tomonidan berilgan bilimlar bilan uyg‘unlashgandagina yuqori natijalarga erishiladi. Ijrochining o‘ziga bo‘lgan ishonchi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari kelajakda butun sinf o‘quvchilari oldida ijro etishlari talab etiladi. Kuchli hayajon yoki o‘ziga bo‘lgan past ishonch ijrodagi xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois oliy ta’lim jarayonida kasbiy bilimlar bilan bir qatorda o‘ziga ishonchni mustahkamlash va sahna hayajonini yengish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish

Ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, talabaning shaxsiy faolligini, mustaqil fikrlashini va ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etishini ta’minlaydi. Bu jarayon, avvalo, ichki motivatsiyani shakllantirish bilan bog‘liq. Talaba musiqiy asarni o‘z ichki dunyosi, kechinmalari va his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashtira olganida, ijro jarayoni ijodiy faoliyatga aylanadi.

Ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishning samarali vositalaridan biri improvizatsiya va ijodiy topshiriqlardir. Masalan, o‘rganilgan asar asosida qisqa improvizatsion parcha yaratish, ohangni o‘zgartirish yoki turli uslublarda ifodalash talabaning ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Tashqi rag‘batlantirish vositalari – tanlovlar, konsertlar, musobaqalar, ijobiy baholashlar ham muhim, biroq asosiy maqsad talabaning ichki ijodiy motivini mustahkamlashdan iborat.

Zamonaviy raqamli vositalar – musiqiy dasturlar, virtual pianino platformalari va audio-tahlil ilovalari ham ijodiy faoliyatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ular talabalarga o‘z ijrosini eshitish, tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

Kommunikativ kompetensiya

Kommunikativ kompetensiya talabalarning ijodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu kompetensiya shaxsning o‘z fikrini erkin ifoda etishi, boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatishi va jamoada hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyatini anglatadi. Ayniqsa, ansambl va xor mashg‘ulotlari jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ansambl va xor mashg‘ulotlari jamoaviy muloqotga asoslangan ijodiy jarayon bo‘lib, bunda har bir ishtirokchi nafaqat o‘z partiyasini to‘g‘ri ijro etishi, balki boshqalarni tinglab, ular bilan uyg‘unlik hosil qilishi zarur. Bu jarayonda o‘zaro hurmat, musiqiy fikr almashish va jamoaviy mas’uliyat hissi shakllanadi. Pedagogning boshqaruvchilik roli hamda ijobiy emotsional muhitni yaratish mahorati ushbu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, ansambl va xor mashg‘ulotlari nafaqat ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki talabalarda kommunikativ madaniyat, o‘zaro hurmat, jamoaviy fikrlash va hamkorlikda ijod qilish malakalarini shakllantiruvchi samarali pedagogik muhitni yaratadi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida – pedagog, ijrochi yoki rahbar sifatida – muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-madaniy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ansambl va xor mashg‘ulotlarida jamoaviy hamkorlikni tashkil etish ko‘nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida fortepiano ijro texnikasini takomillashtirish ularning professional shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Fortepiano mashg'ulotlari faqat texnik malakani rivojlantirish vositasi bo'lib qolmasdan, balki pedagogik mahorat, ijodkorlik va estetik didni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, ushbu jarayon shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, bosqichma-bosqich murakkablashtirish, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish va motivatsiya tamoyillariga asoslanishi lozim.

Shu tariqa bo'lajak musiqa o'qituvchilari o'z kasbiy faoliyatida fortepianodan samarali foydalanib, yosh avlodning musiqiy tarbiyasida muhim o'rin egallashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Liberman, E. Fortepiano texnikasining asoslari. Moskva, 1972.
2. Neygauz, G. G. Ob iskusstve fortepiannoy igri. Moskva, 1958.
3. Zuckerman, B. The Piano Teacher's Guide. New York, 1990.
4. Taubman, D. The Art of Piano Playing. London, 2002.
5. Golubovskaya, N. Fortepiano pedagogikasida metodik yondashuvlar. Toshkent, 2018.
6. Martinsen, K. A. Metodika individual'nogo prepodavaniya igry na fortepiano. Moskva: Klassika-XXI, 2003.
7. Lhévinne, J. Basic Principles in Pianoforte Playing.
8. Busoni, F. Klavierübung (10 jildli fortepiano texnikasi mashqlari to'plami).
9. Jonás, A. Master School of Modern Piano Playing and Virtuosity. 7 jild.
10. Shabdullayeva, L. (2025). Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektdan foydalanish. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.2), 52–54.
11. Orifbekovna, S. L. (2025). Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashda raqamli ta'limning ahamiyati. Журнал научных исследований и их решений, 4(02), 192–194.
12. Shabdullayeva, L. (2024). Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi vositasida o'quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish modeli. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(5), 260–263.
13. Shabdullayeva, L. O. (2024). Imom al-Buxoriy asarlarining pedagogik ahamiyati. Экономика и социум, (10–2(125)), 388–391.
14. Orifbekovna, S. L., & Anvarovna, D. N. (2022). Al-Buxoriy ilmiy merosidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 81–83.
15. Шабдуллаева, Л. О. (2021). Формирование у учащихся интереса к чтению книг. Наука и образование сегодня, 5(64), 74–75.
16. Orifbekovna, S. L. Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi vositasida o'quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish modeli. Andijon davlat universiteti, Umumiy pedagogika kafedrasi.

13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.